

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O`RTA TALIM VAZIRLIGI

MIRZO ULUG`BEK NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT  
ARXITEKTURA-QURILISH INSITUTI

“QURILISH MEXANIKASI VA MATERIALLAR QARSHILIGI”  
KAFEDRASI

DIPLOM LOYIHASI BO`YICHA

# TUSHUNTIRISH XATI

Diplom loyihasining mavzusi:

**“Samarqand viloyati Urgut tumanida ikki qavatli poyabzal ishlab  
chiqarish binosini loyihalash”**

Kafedra mudiri:

Xoliqulov Sh.

Diplom loyihasi rahbari:

Ubaydulloev O.M.

Maslahatchilar:

Ubaydulloev O.M.

Bitiruvchi 404-BvaIQ guruh talabasi:

Hamdamov Sh.X.

**Samarqand-2018**

**ILOVA:**



<b>MUNDARIJA</b>	
<b>KIRISH</b> .....	
<b>I. ARXITEKTURA-QURILISH QISMI:</b>	
I.1. Qurilish tumani, muhandislik-geologik va iqlim sharoiti xarakteristikalari .....	
I.2. Tanlangan uchastkaning tutgan o`rni va joylashuvi .....	
I.3. Hajm-tarhiy va fazoviy echimlar va ularning tavsifi. ....	
I.4. Yuk ko`taruvchi elementlarning umumiy tavsifi. ....	
I.5. Tashqi to`siq g`isht devorining issiqlik-fizik hisobi. ....	
Xulosalar. ....	
<b>II. KONSTRUKTIV QISM:</b>	
II.1. Loyihalanadigan ishlab chiqarish binolarining konstruktiv echimlari va sxemalari .....	
II.2. Loyihalash uchun boshlang`ich berilgan ma`lumotlar .....	
II.3. "LIRA-SAPR" dasturida ramalarni hisoblash va qurilmalash	
II.3.1. "LIRA-SAPR" dasturida ramalarni hisoblash va qurilmalash (1 va 3-otsek) 1-variant. ....	
II.3.2. "LIRA-SAPR" dasturida ramalarni hisoblash va qurilmalash (1 va 3-otsek) 2-variant. ....	
II.3.3. "LIRA-SAPR" dasturida ramalarni hisoblash va qurilmalash (2-otsek)	
Xulosalar .....	
<b>III. ASOS VA POYDEVOR QISM:</b>	
III.1. Alohida turadigan temirbeton nomarkaziy siqilgan poydevorni hisoblash va uni qurilmalash. ....	
III.2. Poydevorning asosining cho`kishini hisoblash (o`rta qator uchun)	
III.3. Tabiiy bosimni aniqlash. ....	
III.4. Poydevorning asosining cho`kishini hisoblash (chetki qator uchun)	
Xulosalar .....	
<b>IV. TEXNOLOGIYA QISM:</b>	
IV.1. Maydonni vertikal rejalash .....	
IV.2. O`rtacha tuproq tashish masofasini aniqlash .....	
IV.3. Vertikal rejalash ishlarini bajarishda ish usullari va mashinalarni tanlash .....	
IV.4. Yer inshooti kotlovanni qazishning texnologik hisobi .....	
IV.5. Texnika xavfsizligi va mehnat muhofazasi. ....	
Xulosalar .....	
<b>UMUMIY XULOSALAR</b> .....	
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI</b> .....	
<b>ILOVALAR</b> .....	



## KIRISH

Mustaqillik yillarida O`zbekiston keng qurilish maydoniga aylandi. Ayniqsa, ishlab chiqarish va qayta ishlash korxonalarini bunyod etishning o`rni beqiyos katta.

Ayniqsa, mahalliy qishloq xo`jaligi xom ashyosidan foydalanish va qayta ishlash jarayonini jadallantirish, korxonalarda mahalliy xom ashyoni qayta ishlash va raqobatbardoshli tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni keng rivojlantirish – mamlakatimiz taraqqiyotida va bugungi bozor iqtisodiyoti davrida dolzarb masalalar qatoridan muhim o`rin egallaydi.

*Pirovardida* zilzilabardosh tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish bo`yicha kichik korxonalarining zilzilabardosh bino va inshootlarni loyihalash va qurishda material hajmini qisqartirish, oldindan zo`riqtirilgan temirbeton konstruktsiyalarni qo`llash, po`lat va sement sarfini kamaytirish, bino vazni va tannarxini pasaytirishga erishish zarurligini ko`rsatmoqda. Amaldagi qurilish me`yor-qoidalari (QMQ, SHNQ) va davlat soha standartlari talablariga ishlab chiqilayotgan loyihalar, kurs va bitiruv-diplom loyiha ishlarining qat`iy muvofiq kelishini ta`minlash, energiya samarador va konstruktiv xavfsiz loyihaviy echimlarni maxsus komp'yuter dasturlarida bajarish – **jamiyat taraqqiyotida muhim o`rin egallaydi.**

Zilzilaviy hududlar uchun bino va inshootlarni qurish (tiklash) istiqbolli – qolip (opalubka) masalasi echilgan hollarda quyma *yaxlit texnologiyada olib borish maqsadga muvofiq bo`lmoqda.* Xususan, bino orayopmalari quyma yaxlit temirbetondan bo`lishi – undagi elementlarni uzluksiz va bir butun konstruktsiyaga (diskka) aylantirib, birikish tugunlari bikir holatga keltirish, orayopma massasi engillashtirish - zilzilali hududlar uchun juda muhim hisoblanadi.

Shu nuqtai nazardan, zilzilabardosh tosh-g'isht va temirbetondan zamonaviy binolarni loyihalash va loyiha-tadqiqot sifatini jiddiy oshirishda – tejamkorlik nuqtai nazaridan masalan, kamida 3-4 variant orayopma tuzilmasi joylashuvi (kompanovkasi)ni tashkil etish, ularning texnik-iqtisodiy ko`rsatgichlarini

taqqoslash, tahlil qilish asosida iqtisodiy samarali hamda konstruktiv xavfsiz variantini tanlash kerak.

Aynan, shu jihatlarni e`tiborga olib, diplom loyihasida – bino va orayopmalarning samarali va konstruktiv xavfsiz echimlarini topish, binolarning barcha qismlari bilan quyma yaxlit yoki yig`ma temirbeton orayopma elementlari o`zaro-chambarchas va uzviy bog`langan holda ishlaydigan to`liq sinchli, orayopmalari temirbetondan barpo etiladigan ko`p qavatli ishlab chiqarish(sanoat) binosini **QMQ 2.01.03-96** ning **2 bo`limiga** muvofiq va **3 bo`limida** ko`zda tutilgan seysmik ta`sirlar hisobi natijalariga bog`liq va bog`liq bo`lmagan holda belgilanadigan konstruktiv tadbir va tavsiyalar asosida loyihalashni maqsad qildik.

Yuqorida keltirilgan asosli fikrlariga ko`ra, tejamkorlik va energiya samaradorligi nuqtai nazaridan 2 qavatli ishlab chiqarish bino sinchining fazoviy holati SHEHM (“Lira-SAPR” dasturi)da statik va seysmik ta`sirlarga hisoblash va loyihalash - *diplom loyihasining maqsad va vazifalariga* kiritildi.

*Loyiha predmeti* – quyma yaxlit temirbeton muntazam va nomuntazam ramali ishlab chiqarish binosini konstruktiv xavfsizlik nuqtai nazaridan loyihalash.

*Loyihaning amaliy ahamiyati.* Loyihalash bosqichida turli soha texnologik jarayonlariga qulay, resurslari bo`yicha samarador ishlab chiqarish binolarini quyma yaxlit temirbeton konstruktsiya elementlaridan foydalanish uchun asos bo`ladi.

Diplom loyiha ishi shu jumladan, tushuntirish xatining mazmun va hajmi:

Tushuntirish xati kirish-so`z boshi bilan boshlanib mavzuga oid me`moriy-qurilish, konstruktiv, asos va poydevor, texnologik qismlar va qurilish jarayonida texnika xavfsizligi va mehnat muhofaza bo`limiga, ya`ni **3** bobga bo`lingan. Har bir bobga mos xulosa, oxirida esa umumiy xulosalar hamda ilovalar, foydalanilgan ilmiy-texnik adabiyotlar va me`yoriy manbalar, komp`yuter 14 shriftida-1,5 intervalda, hajmi (bet) iborat.

Grafik qismi 7 varaq vatman qog`ozida AutoCADda tayyorlangan:

**1.** Me`moriy-qurilish chizmalari loyihalash bo`yicha 3 varaq chizmada bosh tarh, bo`ylama o`qlar bo`yicha old ko`rinish hamda 1,2 qavat bino tarhi, orayopma tarhi kabilar joylashtirilgan. .

**2.** Konstruktiv qism chizmalarida - quyma yaxlit yuk kotaruvchi rama bo`lama yo`nalishda va ko`ndalang yo`nalishda joylashganda temirbeton ramalarni taqqoslash variantlari asosida samarali variant sinchining fazoviy holati “Lira-SAPR” dasturida statik va seysmik ta`sirlarga hisoblandi va qurilmalash bo`yicha ishchi chizmalari va shunga oid ma`lumotlar chizmada bayon etilgan.

**3.** Asos va poydevor chizmalarda – yaxlit poydevorning tarhi, poydevorni qurilmalash, uning cho`kishini aniqlashga oid chizmalar berilgan.

**4.** Texnologik chizmalarda - er ishlari, jumladan maydonni vertical rejalash sxemalari keltirilgan. Hamda mexanizmlar ishlash sxemasi, mehnat sarfi va tannarxini hisoblash jadvallari keltirilgan.



## **I. ARXITEKTURA-QURILISH QISMI:**

## I. ARXITEKTURA-QURILISH QISMI

### I.1 Qurilish tumani, muhandislik-geologik va iqlim sharoiti xarakteristikallari

#### Ushbu binoni loyihalashda:


Urgut shahri uchun muhandislik-geologik va iqlim sharoiti xarakteristikallari QMQ 2.01.01-94 “Loyihalash uchun iqlimiy va fizikaviy-geologik malumotlar”lardan olindi.

#### **Berilgan topshiriq uchun boshlang`ich malumotlar:**

- o`rtacha yillik harorat -  $t=13,3^{\circ}\text{C}$ ;
- eng kichik mutlaq harorat -  $t=-25,4^{\circ}\text{C}$ ;
- eng katta mutlaq harorat -  $t=42,4^{\circ}\text{C}$ ;
- eng issiq oydagi eng katta o`rtacha harorat -  $t=33,7^{\circ}\text{C}$ ;
- eng sovuq oydagi eng kichik o`rtacha harorat -  $t= - 3,7^{\circ}\text{C}$ ;
- havo haroratining sutkalik eng katta amplitudasi:
  - a) yanvar oyi uchun -  $t=23,4^{\circ}\text{C}$ ; b) iyul oyi uchun -  $t=25,2^{\circ}\text{C}$ ;
- tashqi xavoning eng kichik nisbiy namlik darajasi:
  - a) eng sovuq oyda -  $\varphi= 58 \%$ ; b) eng issiq (jazirama) oyda -  $\varphi= 24 \%$  ;
- tashqi xavoning parametrlari:
  - a) joyning jug`rofiy kengligi darajasi - 40;
  - b) eng sovuq vaqtdagi harorat -  $t=-18^{\circ}\text{C}$  (badasturligi 0,98);  $t=-15^{\circ}\text{C}$  (badasturligi 0,92);
  - v) yillik badasturligi 0,98 bo`lgan besh kunlik uchun harorat -  $t=-14^{\circ}\text{C}$ ;
- shamolning tarifi:
  - a) yanvar oyidagi o`rtacha oylik tezligi - 1,9 m/s;
  - b) yanvar oyidagi rumblar bo`yicha eng katta o`rtacha tezligi - 2,5 m/s;
  - v) iyul oyidagi o`rtacha oylik tezligi - 2,0 m/s;
  - g) iyul oyidagi rumblar bo`yicha eng katta o`rtacha tezligi - 0 m/s;
  - d) bir yil mobaynidagi eng katta o`rtacha oylik tezligi (mart va aprel oylarida) - 2,4 m/s;
  - e) 1 yil mobaynidagi chang to`zonli va izg`irinli kunlar soni - 5 kun;
- Yanvar va iyul oylarida shamolning yo`nalishi va tezligi:

Oylar	Dunyo tomonlari								
	<i>sh.</i>	<i>sh.sh</i> <i>q</i>	<i>shq.</i>	<i>j.shq.</i>	<i>j.</i>	<i>j.g`.</i>	<i>g`.</i>	<i>sh.g`.</i>	<i>Tinch</i> <i>holatd</i> <i>a</i>
Yanvar	<u>3</u> 1,3	<u>3</u> 1,2	<u>35</u> 2,5	<u>32</u> 2,7	<u>2</u> 2,2	<u>6</u> 4,2	<u>12</u> 2,9	<u>7</u> 2,0	39
Iyul	<u>12</u> 2,1	<u>15</u> 2,8	<u>38</u> 2,7	<u>22</u> 2,4	<u>0</u> -	<u>1</u> 1,4	<u>4</u> 2,0	<u>8</u> 2,0	34

*Izoh:* qiymatlarning suratida shamol qaytalanish kunlari, mahrajida shamol tezligining qiymati.



**1-rasm.** Samarqand shahri uchun shamolning qaytalanishi va tezligi (shamol guli).

- iyul oyida bulutsiz kunlar yotiq yuzaga tushadigan quyosh radiyasiyasi (bir sutkada jami) - 23,31 MDj/(m<sup>2</sup> sutka);
- iyul oyida bulutsiz kunlar tik yuzaga tushadigan quyosh radiyasiyasi:
  - a) sharqiy yo`nalishda to`g`ri maksimal qiymati - 561 Vt/m<sup>2</sup>;
  - b) sharqiy yo`nalishda tarqoq maksimal qiymati - 179 Vt/m<sup>2</sup>;
  - v) g`arbiy yo`nalishda to`g`ri maksimal qiymati - 257 Vt/m<sup>2</sup>;
  - g) g`arbiy yo`nalishda tarqoq maksimal qiymati - 110 Vt/m<sup>2</sup>;
- o`rtacha bulutli sharoitda oylik yuzaga tushadigan Quyosh radiyasiyasining o`rtacha sutkalik umumiy miqdori:
  - a) o`rtacha yillik miqdori (to`g`ri) - 11,54 MDj/(m<sup>2</sup> sutka);
  - b) o`rtacha yillik miqdori (tarqoq) – 5,96 MDj/(m<sup>2</sup> sutka);
- tuproqning harorati:

- a) tuproq yuzasida yanvar oyida o`rtacha oylik harorat -  $t = -0,7^{\circ}\text{C}$ ; b) tuproq yuzasida iyul oyida o`rtacha oylik harorat -  $t = 33,7^{\circ}\text{C}$ ;
- tuproqning bir marta bo`lsada muzlash ehtimoli eng katta chuqurligi:
- b) har 10 yilda - 26 sm; b) har 50 yilda - 33 sm;
- iqlimiy zonaga ko`ra IV g zonaga mansub, u holda:
- c) havoning iyul oyidagi o`rtacha oylik harorati +25 dan +28  $^{\circ}\text{C}$  gacha;
- d) havoning yanvar oyidagi o`rtacha oylik harorati -15 dan 0  $^{\circ}\text{C}$  gacha;
- qurilish-iqlimiy zonasiga ko`ra - II zonasiga mansub, bu holda:
- e) jazirama issiq davrning davom etishi 0-60 kun/yil;
- f) isitish mavsumining davom etishi - 160 kun/yil dan kam;
- g) qishlarning 50% dan kamroq qismida qor qoplami uzoq vaqt erimay yotadi;
- iqlimiy atmosfera ifloslanishi potentsiali (AIP) bo`yicha hududlashtirishda - juda katta AIP ga ega, qiymati 3,3 dan 3,6 gacha.

**QMQ 2.01.07-96 “YUKlar va ta’sirlar” [3]ning 3 jadvaliga asosan,** Loyihalana yotgan ishlab chiqarish binosining xonalarida yuklarning meyoriy qiymati – 7,5 kPa.

**SHNQ 2.01.02-04 “Bino va inshootlarning yong`in xavfsizligi”ning 4.21. bandiga ko`ra,** loyihalana yotgan ikki qavatli ishlab chiqarish tikuv sexi binosi funksional yong`in xafvi bo`yicha sinfi – F 3.1 va F 2.1 bo`ladi.

## **I.2. Tanlangan uchastkaning tutgan o`rni va joylashuvi**

Qurilish tumani - Urgut shahri.

Relyefi tinch va kesin o`zgarishlarsiz. Qurilish maydonining planirovkasi taitiy relyefni saqlab qolgan holda bajarilgan.

Asosiy esadigan shamol yo`nalishi yanvar oyida – janubi-sharqdan, iyul oyida – sharqdan. Shu sababli, binoning shamollatilishini va xonalarning yoritilishni taminlash maqsadida binoni shamol yo`liga perpendikulyar qilib joylashtiramiz, bu xonalarda xavoning almashinuvini taminlashdan iborat.

Biz loyihalana yotgan Urgut shahri uchun quriladigan **ikki qavatli ishlab chiqarish binosining** joylashuvini aniqlashda quyidagilar etiborga olindi:

- 1) qurilish maydoni shahar chegarasidan tashqarida joylashganligi;
- 2) hudud infrastrukturasi rivojlanganlik darajasi;
- 3) binoning kelajakda kengaytirish imkoniyatining mavjudligi;

Maydonni obodonlashtirish va ko`kalamlashtirish yo`llari ko`zda tutilgan:

- maysazorlar hosil qilinishi;
- daraxt va butalarning ekilishi;
- suv havzalarini tashkil qilish;
- dam olish uchun qulayliklar va skameykalar o`rnatish;

### **I.3. Hajm-tarhiy va fazoviy echimlar va ularning tavsifi**

**1. Binoning joylashuvi.** Loyihalananayotgan poyafzal ishlab chiqarish fabrikasi (trikotaj ishlab chiqarishga) oid bino. Urgut shahri mikroseysmotumanlashtirish xaritasiga ko`ra, qurilish maydonchasining seysmikligi – 8 ball. Seysmikligi xususiyatiga ko`ra gruntlar toifasi – 2 bo`lsa, qurilish tumanining seysmikligi – 8 ball deb qabul qilingan.

**2. Bino o`lchamlari.** Bino tarhiga ko`ra sodda – to`g`ri to`rtburchak ko`rinishga ega. QMQ 2.01.03-96 “Zilzilaviy hududlarda qurilish” [2]ning **3.1-jadvalidagi 3.1.1 bandi** asosida binor ikki qavatli, tarhda antiseysmik choklar yordamida **3 bo`lma** (otsek) **ga** (o`qlar bo`ylab) bo`linadi: **birinchisi** “**A-Ж, 1-5**” tarhda **24x26,4 m**, **ikkinchisi** “**Б-Е, 6-14**” **48x24 m** va **uchinchisi** “**A-Ж, 15-19**” **24x26,4 m** o`lchamga ega. Birinchi qavat balandligi – **4,8 m**, ikkinchi qavat – **4,8 m**.

#### **Arxitektura-tarhiy echimlar tavsifi.**

Zonalashtirish 2 xil gorizontal va vertikal yo`nalishda olib boriladi. Gorizontal zonalashtirishda – gorizontal kommunikasiya (koridor) larning joylashuvi va vertikal zonalashtirishda – vertikal kommunikasiya (zinalar)larning joylashuviga asosiy e`tibor beriladi.

Bugungi kunda engil sanoatda ishlab chiqarish binolarini ko`p qavatli qilib vertikal zonalashtirilmoqda. Chunki, gorizontal zonalashtiriladigan binolarning katta maydonni ekspluatasiya jarayonini murakkablashtiradi. Shu sababli vertikal

zonalashtirilgan binolar qurilish maydonini tejashga, quriladigan binodagi funksional jarayonlarning kompakt bo'lishni taminlashga, tuman ekologik xavfsizligi va atrof muhitning tozaligini taminlashga imkon beradi.

#### **I.4. Yuk ko'taruvchi elementlarning umumiy tavsifi**

**Binoning konstruktiv echimi** to'liq sinchli, u tarhda sodda to'g'ri to'rtburchak ko'rinishga ega 3 bo'lmaga ajratilgan, turtib chiqib turuvchi va qiyalangan qismlari mavjud emas.

Loyihalangan bino fazoviy-tarhiy va konstruktiv echim QMQ 2.01.03-96 "Zilzilaviy hududlarda qurilish" [2]ning **1.2.b bandi 3.1 jadvaliga ko'ra, 8 ballik seysmik hududlarga qo'yiladigan talablari asosida:**

Ikki qavatli bino balandligi **11,7 m** bo'lib, uning qiymati 38 m dan oshmaydi. To'sinlar va orayopmalar ravog'i **6 va 7,2 m**.

**Poydevorlar.** Loyihalananayotgan bino sinchli bo'lganligi va zilzilaviy hududda joylashaganligi uchun bikırır tugunli fazoviy sinchi bilan poydevor bir butun bo'lib ishlashini taminlash maqsadida bino atrofi bo'lab g'isht devor ostida tasmasimon va rama ustunlari ostida alohida turuvchi stakan turidagi poydevorlar tanlandi. Poydevorlar quyma-yaxlit temirbetondan tayyorlanadi. **Poydevorlarga B 12,5 sinfdagi beton** qabul qilindi.

Poydevorning quyilish chuqurligini aniqlash uchun QMQ 2.01.01-94 "Loyihalash uchun iqlimiy va fizikaviy-geologik malumotlar"ga asoslanib bajariladi:

Boshlang'ich malumotlar: tuproqning bir marta bo'lsada muzlash ehtimoli bo'lgan eng katta chuqurligi: a) har 10 yilda - 26 sm; b) har 50 yilda - 33 sm;

QMQ 2.02.01-98 "Bino va inshootlar zaminlari"ning **2.25. bandiga asosan** Poydevorlarning qo'yilish chuqurligini quyidagicha aniqlanadi: 1) gruntlarning mavsumiy muzlash chuqurligidan katta bo'lishi  $h \leq 33$  sm; 2) yondosh inshootlar poydevorlarini quyilish chuqurligini, shuningdek, muhandislik kommunikasiyalarini o'tkazish chuqurligini hisobga olish;

- 3) inshoot quriladigan hududning mavjud va loyihalananayotgan reliefini, qurilish maydoni muhandislik-geologik sharoitlarini etiborga olish;
- 4) maydonning gidrogeologik sharoitlari hamda inshootning qurilishi va foydalanishi jarayonida ularning o`zgarish ehtimolini bilish;
- 5) loyihalananayotgan inshootning vazifasi va konstruktiv xususiyatlarini, uning poydevoriga tushadigan yuklar va ta`sirlarni hisobga olish kerak.

QMQ 2.01.03-96 “Zilzilaviy hududlarda qurilish”ning **3.1.7. bandiga asosan**, tasmasimon va alohida turuvchi poydevorlarning chuqurligi noseysmik tumanlardagidek qabul qilinadi. Poydevorlar ostki sathi butun bino bo`ylab bir xil.

Qurilish maydonchasining grunti QMQ 2.01.01-94 ga ko`ra, II grunt sharoitiga mansub, cho`kuvchanlik xususiyatiga ega. Bunda QMQ 2.02.01-98 “Bino va inshootlar zaminlari”ning **3.8. bandiga asosan**, loyihalashda zaminlarning ruxsat beriladigan chegaralarigacha, o`ta cho`kishiga yo`l qo`ymaydigan yoki inshootning ishga yaroqliligiga ularning ta`sirini kamaytirish tadbirlari ko`zda tutilishi lozim. 3.13. bandiga ko`ra esa, quyidagi tadbirlarni ko`rish yo`li bilan gruntlarning o`ta cho`kish xossalarini bartaraf qilinadi:

- o`ta cho`kishning yuqori zonasini yoki uning bir qismi chegarasida og`ir shibbalagichlar bilan zichlash, grunt yostiqlari yasash, kotlovanlarni shibbalash, shu jumladan, qattiq materiallardan kengaytirma qilib, kimyoviy yoki termik usulda kengaytirib.

**Sinch ustunlari.** Ustunlar to`g`ri to`rtburchak kesimga o`lchamlar 450x450 mm ega bo`lib, yaxlit(quyma) temirbetondan tayyorlanadi va asosiy sinch element bo`lib hisoblanadi. QMQ 2.03.01-96 «Beton va temirbeton konstruksiyalar»ning **2.5 bandiga ko`ra, ustunlarga B20 sinfdagi beton** qabul qilindi.

**Sinch to`sinlari.** Ko`ndalang va bo`ylama yo`nalishdagi to`sinlar to`g`ri to`rtburchak kesimga ega, quyma-yaxlit temirbetondan tayyorlanadi. Yuk ko`tarmaydigan to`sinlar o`lchamlari **400x400 mm** va yuk ko`taradigan to`sinlar o`lchamlari esa **400x500 mm** qilib qabul qilinadi. Beton va temirbeton konstruksiyalar [5]ning **2.5 bandiga ko`ra, ustunlarga B 20 sinfdagi beton** qabul qilindi.

**Devorlar.** Loyihalanayotgan sinchli binoda tashqi to'siq devorlari sifatida zilzila chog`ida sinchning deformatsiyalanishiga to'sqinlik qilmaydigan va seysmik yuklarni qabul qilmaydigan o'z-o'zini ko'taradigan to'ldiruvchi sifatigi g'isht devorlardan foydalaniladi. Bino devorlari pishgan g'ishtdan teriladi hamda issiqlik-fizik hisoblar asosida qalinligi **380 mm** qabul qilinadi.

QMQ 2.01.03-96 "Zilzilaviy hududlarda qurilish"ning **3.2.5. bandiga ko`ra**, sinch ishida qatnashmaydigan to'ldiruvchilar sifatida g'ishtlardan foydalanish mumkin, bunda to'ldiruvchi va sinch (ustun va ustki to'sin) orasida **20 mm lik ochiq chok qoldirilishi** hamda zilzila chog`ida to'ldiruvchilarning kulamasligini taminlovchi choralar ko`rilish lozim. Qoldirilgan chok elastik materiallar bilan to'ldiriladi. To'ldiruvchining ustuvorligi va mustahkamligi uni gorizonta va vertikal yo`nalishlarda terimni armaturalash, rom elementlarini qo'llash hamda bog`lagichlar yordamida taminlanadi.

QMQ 2.01.03-96 [2]ning **3.5.12. bandiga ko`ra**, devorlarning tutashuv erlariga armatura to`rlari yotqiziladi. Bo`ylama armaturaning umumiy kesim yuzasi  $1 \text{ sm}^2$ , uzunligi 1,5 m olinib, balandlik bo'yicha 8 ballik hududlarda har 700 mm ga bitta bitta sim to`r mo`ljallanadi.

QMQ 2.01.03-96 "Zilzilaviy hududlarda qurilish"ning **3.5.3. bandiga** asosan, sinchlar orasini to'ldirishda quyidagi qurilish ashyo va buyumlaridan foydalaniladi:

- a) markasi 75 dan kam bo`lmagan yaxlit pishiq g'ishtlardan;
- b) agar devor toshlari qo`lda terilsa, aralash sement qorishmasining markasi yozda 25, qishda 50 olinadi [зилзила кМК].

**Orayopmalar.** Orayopmalar sifatida oldindan zo`riqtirilgan ko`p bo`shliqli yig`ma temirbeton plitalardan foydalanildi, orayopmaning bazi qismlari esa quyma-yaxlit temirbeton bilan to'ldiriladi. QMQ 2.01.03-96 "Zilzilaviy hududlarda qurilish"ning 3.1.10 bandiga ko`ra, yopma plitalarining yuk ko'taruvchi konstruksiyalariga tayanish masofasi, yani temirbeton to'sinlarga **120 mm**.

QMQ 2.01.03-96 ning 3.1.10 bandiga ko`ra, to'sinli sxemada ishlaydigan yig`ma temirbeton plitalarning bo`ylama yo`nalishdagi tomoni botiq uyi.



**Zinalar.** Zinalar marshi va maydonchalari yaxlit(quyma) temirbetondan loyihalanadi. QMQ 2.03.01-96 «Beton va temirbeton konstruksiyalar» [3]ning **2.5 bandiga ko`ra, zina marshi va maydonchalari uchun kamida B15 sinfdagi beton ishlatilishi kerak.**

**Pollar.** Pollar chiroylilik, mustahkamlilik, elastiklik, tashqi omillarga qarshilik ko`rsata olishi, tovushlarni yutishi va iqtisodiy jihatdan tejamli bo`lishi kabi talablarga javob bera olishi nuqtai nazardan quyidagi pollar tanlandi: ishlab chiqarish zallarida va yordamchi xonalarda – mozaykali (koshinkor) pollar.

**Mozaykali pollar** quyidagi qatlamlardan iborat bo`ladi:

- a) mozaykali pol;
- b) sement-qumli tekislovchi qatlam;
- v) issiqlik saqlovchi qatlam;
- g) orayopma plitasi.

**Tom.** Tom sifatida umumlashtirilgan shamollatilmaydigan tomlar qabul qilingan. Bunday tomlar to`g`ridan-to`g`ri tom yopmasi ustidan bajariladi. Bunday tomlarga sovuqbardoshlilik va suv o`tkazmaslilik talablari qo`yiladi.

Tom quyidagi qatlamlardan iborat bo`ladi:

- 1) Andulin
- 2) to`rt qatlamli ruberoid;
- 3) sement-qumli tekislovchi qatlam;
- 4) issiqlik saqlovchi qatlam, penablok;
- 5) qiyalik ( $i = 1,5 \%$ ) hosil bo`lishi uchun shlak qatlami;
- 6) rulonli bug` saqlovchi qatlam (paroizolyasiya) – mastikaga botirilgan bir qatlam ruberoid;
- 7) orayopma plitasi.

**Deraza va eshiklar.** Derazalar (vitrajlar) va eshiklar individual loyihalar asosida bajariladi.

## **Xulosalar**

Poyabzal, to`quv-yig`iruv, ip-gazlama va trikotaj sanoatiga oid ishlab chiqarish uchun loyihalangan va qurilgan resursi samarador yangi turdagi binolarga bo`lgan talab va ehtiyoj ko`lami oshib bormoqda. Shu sabab, amaldagi qurilish meyor-qoidalari (QMQ, SHNQ) va davlat soha standartlari talablariga ishlab chiqilayotgan bu turdagi bino va inshootlar loyihalari, kurs va bitiruv-diplom loyiha ishlarining qat'iy muvofiq kelishini taminlash, energiya samarador va konstruktiv xavfsiz loyihaviy echimlarni maxsus kompyuter dasturlarida bajarish nuqtai nazardan ishlab chiqarish binosini loyihalashda:

1. Zilzilabardoshlikni taminlash masalariga, xususan **QMQ 2.01.03-96** ning **2 bo`limiga** muvofiq seysmik ta'sir hisobi natijalariga bog`liq va **3 bo`limida** ko`zda tutilgan konstruktiv talablarga ko`ra seysmik ta'sirlar hisobi natijalariga bog`liq bo`lmagan holda belgilanadigan chora-tadbirlarni o`tkazish tartiblarini aniq misollar echimida keltirish.

2. Qabul qilingan oddiy rama sxemasiga ega ustun, to`sin va orayopma disklar bir-biriga biki holda birlashtirilishi va mustahkamligini taminlashiga qaratish.

3. Binoning tashqi va fasad ko`rinishi aynan, ishlab chiqarish bino majmuasiga xos bo`lgan turli xildagi to`siq konstruksiyalar, deraza va eshik kabilar orqali arxitektura-memoriy jihatlarini ochishga erishish.

## **ONSTRUKTIV QISM**

## II. KONSTRUKTIV QISM

### II.1. Loyihalanadigan ishlab chiqarish binolarining konstruktiv yechimi va sxemalari

Zilzila xavfi bo'lgan hududlarda barpo etiladigan ikki qavatli ishlab chiqarish binosi tarhda “to'g'ri to'rtburchak” shaklida loyihalangan. Bino tarhda va balandliklar bo'yicha muntazam sodda shaklga ega bo'lgan antiseysmik bo'lmalarga ajratilgan.

Bino iqtisodiy jihatdan samarali bo'lgan to'liq sinchli rama sistemasida yaxlit(quyma) temirbeton variantida: oddiy rama sxemasiga ega - ustun, to'sin va orayopma disklar bir-biriga bikir holda birlashtirilishi va ularning mustahkamligini taminlashiga alohida etibor beriladi. Yani, binoning bo'yлама va ko'ndalang yo'nalishlarida rama ustuni va to'sini hamda orayopma va yopma disklarining bir-biriga bikir birlashtirilishi binoning bikrligi va ustuvorligini ta'minlanadi.

Rama ustuni va to'sinlarning ko'ndalang kesimi to'g'ri to'rtburchakli qabul qilindi. Orayopma va tom plitasi sifatida oldindan zo'riqtirilgan ko'p bo'shliqli yig'ma temirbeton plitalar olindi. Bunda, devorlar seysmik ta'sir jarayonida sinchlarning deformatsiyalanishiga xalal bermaydi. Texnologik jarayonga xizmat qiluvchi jihoz va ishlab chiqarish kommunikasiyasini joylashtirishga ham xalaqit bermasligi etiborga olingan holda loyihalangani.

Inersiya uyg'otuvchi massalarni hisoblashda devor konstruksiyasi va to'siqlarning xususiy og'irliklari etiborga olinadi. Vertikal va gorizontal ta'sir etuvchi jami yuklarni bikir bog'langan sinch elementlari qabul qiladi. QMQ 2.01.03-96 “Zilzilaviy hududlarda qurilish” ning 3.1-jadvalidagi 3.1.1 bandi asosida bino ikki qavatli, tarhda antiseysmik choklar yordamida 3 bo'lma (otsek) ga (o'qlar bo'ylab) bo'linadi: **birinchisi** “A-Ж, 1-5” tarhda **24x26,4 m**, **ikkinchisi** “Б-Е, 6-14” **48x24 m** va **uchinchisi** “A-Ж, 15-19” **24x26,4 m** o'lchamlarga ega. Binoning birinchi va ikkinchi qavatlar balandligi **4,8 m**ga teng

Binoning ko'ndalang yo'nalishidagi fazoviy bikrligini ko'p qavatli rama sxemasida ishlayotgan ko'ndalang ramaning bikir tugunlari hisobidan taminlanadi. Binoning bo'yлама yo'nalishidagi bikrligini:

- Chetki va o`rta sinch ustunlarining har bir qatori bo`ylab yaxlit-quyma temirbeton bo`ylama to`sinlarini qurilish maydonchasida barpo etish hamda ularning ustiga o`rnatiladigan plitalar orasida qoldirilgan 150 mm da hamda rama to`sinlari bo`ylab (qadami 400 mm da kamida  $\varnothing 12$  A-III vertikal armaturalar qoldirish sharti bilan) quyma yaxlit plita balandligida kamida 4 $\varnothing 6$  A-III armatura sinchi (qadami 200 mm) joylashtirib mayda donali beton to`ldirish bilan barcha rama elementlari birlashtirilib, biki tugunga aylantiriladi.

Zilzilali hududlarda ko`riladigan ushbu chora-tadbir, nafaqat bo`ylama, balki ko`ndalang yo`nalishdagi bikiqlikni to`liq taminlashga yordam beradi.

*Hisobiy sxema va yuklanishlar.* Sinch (karkasli) ko`p qavatli ishlab chiqarish binosi ramasini seysmik ta`sirlarga hisoblashimizdan maqsad, birinchidan, seysmik kuch gorizontal ta`sir etadi, ikkinchidan, sinch ramasining yuk ko`taruvchi konstruksiyalari seysmik ta`sirlarini inobadga olgan holda, faqat chegaraviy holatning I guruhi (yuk ko`tarish qobiliyati) bo`yicha, hisoblash maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Ko`p qavatli ko`p ravoqli ramali temirbeton sinchli ishlab chiqarish binolari muntazam tartib bilan keluvchi ramali binolar sinfiga kiradi.

**Hisobiy sxema** – rama ravoqiga uzunligiga ustun o`qlari orasidagi masofa olinadi; barcha qavatlar balandligi birinchidan tashqari, rigellar o`qlari orasidagi masofaga teng deb olinadi. Birinchi qavat balandligini poydevor chetki qirrasidan birinchi qavat orayopma rigellari o`qlarigacha bo`lgan masofa olinadi. Poydevorlarni qo`yilish chuqurligini xuddi, noseysmik tumanlardagidek olinadi.

Ushbu bino quyma yaxlit temirbeton sinchining fazoviy holati “Lira-SAPR” dasturida statik va seysmik ta`sirlarga katta aniqlikda hisoblash mumkin.

## **II.2. Loyihalash uchun boshlang'ich berilgan ma`lumotlar**

1. Binoning eni  $B=26,4$  m;
2. Binoning uzunligi  $L= 98$  m;
3. Birinchi va qavat ustun to`ri  $l_1 \times l_2 = 6 \times 7,2$  va  $6 \times 6$  m;
4. Bino qavatlari balandliklari  $h_{1qav} = 4,8$  m.;  $h_{2qav} = 4,8$  m.

5. Bino qavatlar soni  $n=2$ ;
6. Qavatlararo orayopmaga tushadigan muvaqqat (foydali) yuk -  $7,5 \text{ kN/m}^2$ , shu jumladan qisqa muddatli –  $2,5 \text{ kN/m}^2$ ;
7. Qurilish tumani - Samarqand viloyati Urgut tumani.
8. Qurilish maydoni zilzilaviy holati va binoning hisobiy seysmikligi – 8 ball;
9. Asos gruntining toifasi – tuproq (suglinok) gruntlar ( gruntning seysmik xossalari bo`yicha toifasi II, cho`kuvchan qatlam qalinligi 4,5 m dan 20 m gacha, cho`kish miqdori 0,15 m dan 0,5 m gacha).
10. Bino sinchi (ustunlar va rigellar):
  - ustunlar uchun B20 sinfdagi beton;
  - rigellar uchun B20 sinfdagi beton;
  - poydevor uchun B12,5 sinfdagi beton;
11. Armatura sifatida A-III, A-I, Bp-I sinfdagi po`lat;
12. Orayopma va tom plitasi sifatida oldindan zo`riqtirilgan ko`p bo`shliqli yig`ma temirbeton plita  $h_{\text{plit}}=220 \text{ mm}$ ;
13. Pol turi – Manzarali pol.

Tom quyidagi qatlamlardan iborat: Andulinli qoplama; to`rt qatlamli ruberoid; sement-qumli tekislovchi qatlam; issiqlik saqlovchi qatlam, penabeton (issiqlik-fizik hisoblar asosida topiladi); qiyalik ( $i=1,5\%$ ) hosil bo`lishi uchun shlak qatlami; rulonli bug` saqlovchi qatlam (paroizolyatsiya) – mastikaga botirilgan bir qatlam ruberoid; orayopma plitasi. Pol turi – manzarali pol  $\delta=15 \text{ mm}$ ;

### **II.3. “LIRA-SAPR” dasturida ramalarni hisoblash va qurilmalash**

#### ***Variant taqqoslash***

Bino konstruksiyalarini iqtisodiy jihatdan samarador variantini tanlash maqsadida hisob ishlarini ikkita variant bo`yicha amalga oshiramiz.

**Birinchi variantda** bino yuk ko`taruvchi to`sinini binoning bo`ylama yo`nalishi bo`yicha joylashgan deb qabul qilamiz.

**Ikkinchi variantda** bino yuk ko`taruvchi to`sinlari binoning ko`ndalang qismi bo`yicha joylashgan bo`ladi.

Iqtisodiy jihatdan samarador variantni tanlash uchun bino temirbeton konstruksiyalariga ketadigan armatura sarfini taqqoslaymiz.

Yuklanish turlari:

- Yuklanish 1 –Doimiy yuk;
- Yuklanish 2 – Muvaqqat yuk;
- Yuklanish 3 – Tomga tushadigan qor yuki;
- Yuklanish 4 – «Y» o`qi bo`ylab ta'sir etuvchi ishorasi o`zgaruvchan shamol yuki;
- Yuklanish 5 – «X» o`qi bo`ylab ta'sir etuvchi ishorasi o`zgaruvchan shamol yuki;
- Yuklanish 6 – X o`qi bo`ylab ta'sir etuvchi ishorasi o`zgaruvchan seysmik yuki;  
(bino bo`ylab)
- Yuklanish 7 - Y o`qi bo`ylab ta'sir etuvchi ishorasi o`zgaruvchan seysmik yuki;  
(bino ko`ndalang yo`nalishida)

### II.3.1. “LIRA-SAPR” dasturida ramalarni hisoblash va qurilmalash (1 va 3-otsek) 1-variant

#### Bino elementlariga yuk to`plash

Orayopma va tom yopmasiga tushadigan vertikal yuklarning hisob natijalari.

2-jadval.

No	Yuklarning nomlari va xillari	Yuklarning me`yoriy qiymatlari, $\text{kN/m}^2 g_n$	Yuk bo`yicha ishonchlik koeffisienti $\gamma_f$	Hisobiy yuk, $\text{kN/m}^2 g_n \cdot \gamma_f$
1	<b>Tom yopmasidan</b> <b>DOIMIIY YUK:</b>			
	<b>Tom qoplamasining himoya qatlami</b> ( $\delta=0,02 \text{ m}$ ; $\rho = 16 \text{ kN/m}^2$ )	0,32	1,2	0,38
	3 qavat ruberoidli qoplama (0,1 $\text{kN/m}^2$ )	0,1	1,1	0,11
	Sement qumli tekislovchi qatlam ( $\delta=0,02 \text{ m}$ ; $\rho = 20 \text{ kN/m}^2$ )	0,4	1,3	0,52
	Issiq-sovuqdan himoyalash-penobeton qatlam ( $\delta=0,10 \text{ m}$ ; $\rho = 6 \text{ kN/m}^2$ )	0,6	1,3	0,78
	Bug` izolyatsiyasi qatlami (0,05 $\text{kN/m}^2$ )	0,05	1,1	0,06
	Temir-beton tom yopma plitasi ( $\delta=0,22 \text{ m}$ ; $\rho = 3,25 \text{ kN/m}^2$ )	3,25	1,1	3,575
<b>JAMI:</b>	4,72		5,425	
	Muvaqqat (vaqtinchalik)-qisqa muddatli yuk (qor og`irligi)	0,5	1,4	0,7
1	<b>Orayopma</b> <b>DOIMIIY YUK:</b> Manzarali pol (Mozayka)			

	( $\delta=0.015$ m; $\rho = 20$ kN/m <sup>2</sup> )			
	Sementli qatlam ( $\delta=0.02$ m; $\rho = 24$ kN/m <sup>2</sup> )	0,3	1,2	0,36
	Temir-beton tom yopma plitasi ( $\delta=0.22$ m; $\rho = 3.25$ kN/m <sup>2</sup> )	0,48	1,1	0,53
		3,25	1,1	3,575
	<b>JAMI:</b>	4,03		4,465
2	<b>Foydali muvaqqat yuk:</b>			
	Uzoq muddatli	5,0	1,2	6,0
	Qisqa muddatli	2,5	1,2	3,0
	<b>TO`LIQ YUK</b>	11,53		13,465

### Bino elementlariga yuk to`plash

Binoning hisobiy sxemasining 1-qavat balandligini aniqlaymiz.

Hisobiy sxema birinchi qavat balandligi rigel markaziy o`qi sathigacha tuziladi va quyidagicha aniqlanadi:  $4,8-0,3-(0,4/2)+0,8 = 5,1$  m.

- bu yerda 0,8 pol sathidan ostun ost qismigacha bo`lgan masofa;

Hisobiy sxemada ikkinchi qavat balandligi:  $5,1+4,8 = 9,9$  m

### VARIANT №1

#### **1-Yuklanish**

**Tom yopmasidan ta`sir etadigan doimiy yukni aniqlaymiz:**

Qadami 7,2 m bo`lgan tomyopma to`sinidan 1 m /b ga

$$5,425 \times (7,2/2) = 19,53 \text{ kN/m}$$

Qadami 7,2 m va 6 m bo`lgan tomyopma to`sinidan 1 m /b ga

$$5,425 \times (7,2/2 + 6/2) = 35,8 \text{ kN/m}$$

Qadami 6 m bo`lgan tomyopma to`sinidan 1 m /b ga

$$5,425 \times 6 = 32,55 \text{ kN/m}$$

**Orayopmadan ta`sir etadigan doimiy yukni aniqlaymiz:**

Qadami 7,2 m bo`lgan orayopma to`sinidan 1 m /b ga  $4,465 \times (7,2/2) = 16,07$  kN/m

Qadami 7,2 m va 6 m bo`lgan orayopma to`sinidan 1 m /b ga

$$4,465 \times (7,2/2 + 6/2) = 29,47 \text{ kN/m}$$

Qadami 6 m bo`lgan orayopma to`sinidan 1 m /b ga  $4,465 \times 6 = 26,8$  kN/m

**Devordan ta`sir etadigan doimiy yukni aniqlaymiz:**

1 m<sup>2</sup> dagi  $(18 \times 0,4 \times 1,2 + 0,04 \times 16 \times 1,2) = 9,408$  kN/m

$$4,8 - (0,3 + 0,4) = 4,1 \text{ m}$$



$$9,408 \times 4,1 = 38,57 \text{ kN/m}$$

$$9,408 \times 1,2 = 11,29 \text{ kN/m (1,2 m – podokonnik balandligi);}$$

$$9,408 \times 1 = 9,408 \text{ kN/m (1 m – parapet balandligi);}$$

### Seysmik kamardan tushadigan yukni hisoblash:

$$0,22 \times 0,4 \times 25 \times 1,1 = 2,42 \text{ kN/m}$$

$$\text{Tom yopmasida - } 2,42 + 0,74 = 3,16 \text{ kN/m}$$

### 2-Yuklanish

#### Foydali muvaqqat yuklarning orayopmaga ta'siri

$$\text{Qadami 7,2 m bo'lgan orayopma to'sinidan 1 m /b ga } 9 \times (7,2/2) = 32,4 \text{ kN/m}$$

$$\text{Qadami 7,2 m va 6 m bo'lgan orayopma to'sinidan 1 m /b ga}$$

$$9 \times (7,2/2 + 6/2) = 59,4 \text{ kN/m}$$

$$\text{Qadami 6 m bo'lgan orayopma to'sinidan 1 m /b ga } 9 \times 6 = 54 \text{ kN/m}$$

$$\text{Tom yopmasida - } 0,7 \times 1,3 = 0,91 \text{ kN/m}$$

$$\text{Qadami 7,2 m bo'lgan tomyopma to'sinidan 1 m /b ga } 0,91 \times (7,2/2) = 3,276 \text{ kN/m}$$

$$\text{Qadami 7,2 m va 6 m bo'lgan tomyopma to'sinidan 1 m /b ga}$$

$$0,91 \times (7,2/2 + 6/2) = 6,0 \text{ kN/m}$$

$$\text{Qadami 6 m bo'lgan tomyopma to'sinidan 1 m /b ga } 0,91 \times 6 = 5,46 \text{ kN/m}$$

### 3-Yuklanish

#### Tom yopmaga tushadigan vaqtinchalik qor yuki

$$\text{Qadami 7,2 m bo'lgan tomyopma to'sinidan 1 m /b ga } 0,7 \times (7,2/2) = 2,52 \text{ kN/m}$$

$$\text{Qadami 7,2 m va 6 m bo'lgan tomyopma to'sinidan 1 m /b ga}$$

$$0,7 \times (7,2/2 + 6/2) = 4,62 \text{ kN/m}$$

$$\text{Qadami 6 m bo'lgan tomyopma to'sinidan 1 m /b ga } 0,7 \times 6 = 4,2 \text{ kN/m}$$

### 4-Yuklanish

“Y” o`qi bo`yicha shamol yuki, “A” turdagi hududlar uchun,

Bir tekis taqsimlangan shamol yukining hisobiy qiymati quyidagi formula bilan topiladi:  $W_m = W_0 k c \gamma_f \gamma_n$

Bu yerda  $W_0$  – shamol bosimining me`yoriy qiymati - **0,38 kPa** ga teng:  $k$  – shamol bosimini balandlik bo`yicha o`zgarishini hisobga oluvchi koeffisient 1...5 gacha  $k=0,75$ , 5...10 gacha  $k=1$  deb olinadi:  $c$  – Aerodinamik koeffisient,

binoning shamol esgan tomonidagi vertikal devori uchun  $c=0,8$ , shamolga qarshi tomoni uchun  $c=0,6$  ga teng;  $\gamma_f=1,4$  – yuk bo'yicha ishonchlilik koeffisienti;  $\gamma_n=1$  – binoning vazifasiga ko'ra ishonchlilik koeffisienti;

Rigel markaziy o'qi sathini aniqlaymiz:  $4,8-0,3-(0,4/2)+0,6=4,9$  m.

0,6- sokol balandligi;

Ikkinchi qavat rigel o'qi balandligi:  $4,9+4,8=9,7$  m.

Yer sathidan boshlab, bino sinch baladligi bo'ylab,  $1 \text{ m}^2$  yon sirtiga ta'sir qiluvchi shamol yuki:

- 4,9 m balandlikda:  $W_{m1}=W_0kc\gamma_f\gamma_n=0,38 \times 0,75 \times 0,8 \times 1,4 \times 1=0,32 \text{ kN/m}^2$

$$W_{m2}=W_0kc\gamma_f\gamma_n=0,38 \times 0,75 \times 0,6 \times 1,4 \times 1=0,24 \text{ kN/m}^2$$

- 9,7 m balandlikda:  $W_{m1}=W_0kc\gamma_f\gamma_n=0,38 \times 0,985 \times 0,8 \times 1,4 \times 1=0,42 \text{ kN/m}^2$

$$W_{m2}=W_0kc\gamma_f\gamma_n=0,38 \times 0,985 \times 0,6 \times 1,4 \times 1=0,314 \text{ kN/m}^2$$

Yer sathidan boshlab, bino sinch baladligi bo'yicha, yon sirtiga ta'sir qiluvchi shamol yuki, qadami 7,2 m:

- 4,9 m balandlikda –  $W_1 = W_{m1} \cdot (7,2/2) = 0,32 \times (7,2/2) = 1,152 \text{ kN/m}$

$$W_2 = W_{m2} \cdot (7,2/2) = 0,24 \times (7,2/2) = 0,864 \text{ kN/m}^2$$

- 9,7 m balandlikda –  $W_1 = W_{m1} \cdot (7,2/2) = 0,42 \times (7,2/2) = 1,512 \text{ kN/m}$

$$W_2 = W_{m2} \cdot (7,2/2) = 0,314 \times (7,2/2) = 1,13 \text{ kN/m}$$

Yer sathidan boshlab, bino sinch baladligi bo'yicha, yon sirtiga ta'sir qiluvchi shamol yuki, qadami 7,2 m va 6 m:

- 4,9 m balandlikda –  $W_1 = W_{m1} \cdot (7,2/2+6/2) = 0,32 \times (7,2/2+6/2) = 2,112 \text{ kN/m}$

$$W_2 = W_{m2} \cdot (7,2/2+6/2) = 0,24 \times (7,2/2+6/2) = 1,584 \text{ kN/m}$$

- 9,7 m balandlikda –  $W_1 = W_{m1} \cdot (7,2/2+6/2) = 0,42 \times (7,2/2+6/2) = 2,772 \text{ kN/m}$

$$W_2 = W_{m2} \cdot (7,2/2+6/2) = 0,314 \times (7,2/2+6/2) = 2,07 \text{ kN/m}$$

Yer sathidan boshlab, bino sinch baladligi bo'yicha, yon sirtiga ta'sir qiluvchi shamol yuki, qadami 6 m:

- 4,9 m balandlikda –  $W_1 = W_{m1} \cdot 6 = 0,32 \times 6 = 1,92 \text{ kN/m}$

$$W_2 = W_{m2} \cdot 6 = 0,24 \times 6 = 1,44 \text{ kN/m}$$

- 9,7 m balandlikda –  $W_1 = W_{m1} \cdot 6 = 0,42 \times 6 = 2,52 \text{ kN/m}$

$$W_2 = W_{m2} \cdot 6 = 0,314 \times 6 = 1,88 \text{ kN/m}$$

### 5-Yuklanish

“X” o`qi bo`yicha shamol yuki, “A” turdagi hududlar uchun:

Yer sathidan boshlab, bino sinch baladligi bo`ylab, 1 m<sup>2</sup> yon sirtiga ta'sir qiluvchi shamol yuki:

- 4,9 m balandlikda:  $W_{m1} = W_0 k c \gamma_f \gamma_n = 0,38 \times 0,75 \times 0,8 \times 1,4 \times 1 = 0,32 \text{ kN/m}^2$

$$W_{m2} = W_0 k c \gamma_f \gamma_n = 0,38 \times 0,75 \times 0,6 \times 1,4 \times 1 = 0,24 \text{ kN/m}^2$$

- 9,7 m balandlikda:  $W_{m1} = W_0 k c \gamma_f \gamma_n = 0,38 \times 0,985 \times 0,8 \times 1,4 \times 1 = 0,42 \text{ kN/m}^2$

$$W_{m2} = W_0 k c \gamma_f \gamma_n = 0,38 \times 0,985 \times 0,6 \times 1,4 \times 1 = 0,314 \text{ kN/m}^2$$

Yer sathidan boshlab, bino sinch baladligi bo`yicha, yon sirtiga ta'sir qiluvchi shamol yuki, qadami 6 m:

- 4,9 m balandlikda –  $W_1 = W_{m1} \cdot (6/2) = 0,32 \times (6/2) = 0,96 \text{ kN/m}$

$$W_2 = W_{m2} \cdot (6/2) = 0,24 \times (6/2) = 0,72 \text{ kN/m}$$

- 9,7 m balandlikda –  $W_1 = W_{m1} \cdot (6/2) = 0,42 \times (6/2) = 1,26 \text{ kN/m}$

$$W_2 = W_{m2} \cdot (6/2) = 0,314 \times (6/2) = 0,942 \text{ kN/m}$$

Yer sathidan boshlab, bino sinch baladligi bo`yicha, yon sirtiga ta'sir qiluvchi shamol yuki, qadami 6 m:

- 4,9 m balandlikda –  $W_1 = W_{m1} \cdot 6 = 0,32 \times 6 = 1,92 \text{ kN/m}$

$$W_2 = W_{m2} \cdot 6 = 0,24 \times 6 = 1,44 \text{ kN/m}$$

- 9,7 m balandlikda –  $W_1 = W_{m1} \cdot 6 = 0,42 \times 6 = 2,52 \text{ kN/m}$

$$W_2 = W_{m2} \cdot 6 = 0,314 \times 6 = 1,88 \text{ kN/m}$$

### 6-Yuklanish

**«X» o`qi bo`ylab ta'sir etuvchi seysmik ishorasi o`zgaruvchan yuk (bino bo`ylab)**

“X” o`qi bo`ylab gorizontal ishoralari o`zgaruvchan seysmik yuk 3 shakl bo`yicha o`rganiladi, og`irlik (0,9 – doimiy yuk, 0,8– vaqtinchalik yuk va Qor yuki uchun-0,5) koeffisientlarni etiborga olgan holda taqsimlangan. Shamol yuki etiborga olinmaydi. Orayopma va tom yopmadan og`irlik birikuvchi devorlarning

og`irligini etiborga olgan holda ularning yuk maydonini etiborga olib tugunlar bo`yicha taqsimlangan.

### **7-Yuklanish**

**«Y» o`qi bo`ylab ta'sir etuvchi seysmik ishorasi o`zgaruvchan yuk (bino bo`ylab)**

“Y” o`qi bo`ylab gorizontal ishoralari o`zgaruvchan seysmik yuk 3 shakl bo`yicha o`rganiladi, og`irlik (0,9 – doimiy yuk, 0,8– vaqtinchalik yuk va Qor yuki uchun-0,5) koeffisientlarni etiborga olgan holda taqsimlangan. Shamol yuki etiborga olinmaydi. Orayopma va tom yopmadan og`irlik birikuvchi devorlarning og`irligini etiborga olgan holda ularning yuk maydonini etiborga olib tugunlar bo`yicha taqsimlangan.

Mazkur hisob natijalari LiraSapr dasturiga kiritilgandan so`ng 2-variant qiymatlarini aniqlab, Lira dasturiga kiritib iqtisodiy samarador variantni tanlaymiz.

**Olingan natijalarga asoslanib to`sin va ustunlarni armatura bilan jihozlash:**

Lira dasturida barcha amallarni bajarganimizdan so`ng hisob qilishni buyuramiz va konstruktirovaniya bo`limidan har bir konstruksiyamiz uchun armatura yuzalari orqali armatura tanlaymiz.

### **VARIANT №1**


Dastlab birinchi variantdagi ustunlar armaturalari sarfini hisoblab chiqamiz. Quyidagi chizmada qizil rang bilan ko`rsatilgan qiymatlar birinchi qavat armaturalari va ko`k rang bilan belgilanganlari ikkinchi qavat armaturalari qilib belgilangan. Ustunlar siqilishga ishlagani sababli asosan, ustunlar oddiy, termik ishlov berilmagan A-III markali armatura tanlaymiz.

**Ustunlar armaturalari(2-rasm)**

**Ustunlardagi armatura sarfi**

1-qavat ustunlariga ketadigan armatura sarfi;

Birinci qavat ustun sinchining balandligini rigel ust qismidan bir metr chiqarilgan deb qabul qilamiz va quyidagicha aniqlaymiz:  $4,8-0,3+0,8+1,0 = 6,3$  m -bu yerda 0,8 pol sathidan ostun ost qismigacha bo`lgan masofa;  
 Bir metr A-III markali Ø22 armaturaning og`irligi – 2,984 kg;  
 $2,984 \times 6,3 = 18,8$  kg  
 $18,8 \times 44 = 827,2$  kg



**2-Rasm.** Ustunning armaturalanishi. Birinchi qavat armaturalari qizil rang bilan belgilangan, ikkinchi qavat armaturalari qora rangda belgilangan.

Bir metr A-III markali Ø20 armaturaning og`irligi – 2,466kg;  
 $(2,466 \times 6,3) = 15,536$  kg

$$15,536 \times 80 = 1242,88 \text{ kg}$$

Bir metr A-III markali Ø18 armaturaning og'irligi – 2 kg;  $(2 \times 6,3) = 12,6 \text{ kg}$

$$12,6 \times 48 = 604,8 \text{ kg}$$

Bir metr A-III markali Ø16 armaturaning og'irligi – 1,578 kg;

$$1,578 \times 6,3 = 9,94 \text{ kg}$$

$$9,94 \times 24 = 238,6 \text{ kg}$$

### 2-qavat ustunlariga ketadigan armatura sarfi;

Ikkinchi qavat ustun sinchining balandligini rigel ust qismidan 60 sm chiqarilgan deb qabul qilamiz va quyidagicha aniqlaymiz:  $4,8 + 0,6 = 5,4 \text{ m}$

Bir metr A-III markali Ø16 armaturaning og'irligi – 1,578 kg;

$$1,578 \times 5,4 = 8,52 \text{ kg}$$

$$8,52 \times 68 = 579,4 \text{ kg}$$

Bir metr A-III markali Ø14 armaturaning og'irligi – 1,208 kg;

$$1,208 \times 5,4 = 6,523 \text{ kg}$$

$$6,523 \times 72 = 469,65 \text{ kg}$$


**Jami:** 3962,5 kg

### To'sin armaturalari


To'sinlar uchun A-III markali armatura tanlaymiz. To'sinlarning yuqori siqiladigan qismiga 2 Ø25 armatura tanlaymiz.

